

## O‘smirlarda destruktiv xulq ko‘rishlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

**Abdurashidova Gavhar Abdurazzoq qizi**  
**Osiyo xalqaro universiteti pedagogika va psixologiya yonalishi**  
**2-bosqich magistri**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda kuzatiladigan xulq-atvor ko‘rinishlarini shakllanishi, ularni shakllanishiga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlash va shuningdek, ularga to‘g‘ri diagnoz qo‘yish va ular bilan korreksiya ishlarini olib borish usullari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** destruktiv xulq, deviant tur, eros, tanatos, libido, ong va ongsizlik, jazirama issiq, fazoil nutqiya, fazoil xulqiya, anomiya.

Destruktiv xulq muammosi 20-asrning o‘rtalarida shakllangan. Psixologik yondoshuv shaxsning og‘ishgan xulqidagi alohida ko‘rinishlarini ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan. Destruktiv xulq- jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy xulq ko‘rinishlariga zid bo‘lgan har qanday muqobil fikrlarni inkor etishga yo‘naltirilgan xulq ko‘rinishidir. Destruktiv xulq 2 asosiy turlarda namoyon bo‘ladi 1. Delinkvent tur —jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy xuquqiy me‘yorlarga qarama qarshi bo‘lgan xatti — harakatlarga xulqning yo‘nalganligi maishiy oilaviy nizolar, yo‘l transport xodisalari, qo‘pollik 2. Deviant tur —jamiyatda qabul qilingan axloqiy me‘yorlarga qarama — qarshi xulqiy ko‘rinshlarni namoyon etish [alkogolizm, suitsid narkomaniya] mexr muxabbatga ega bo‘lmaganligi. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan etarli darajada mexr muxabbatga ega bo‘lmaganligi, nasliy omillar bo‘lishi ham mumkin. Bundan tashqari quyidagi sabablar ham aloxida e‘tibor talab qiladi: • Psixik sog‘lomlik xolati xayot davomida qo‘zg‘ovchi omillar ta’sirida o‘zgarib turishi mumkin. • Jismoniy sog‘lomlik xolati hayot davomida keskin yomonlashish mumkin natijada inson xech qanday qonun qoidalarga bo‘ysinishni xoxlamay qoladi • Kasbiy soxada muvoffaqiyatsizliklar, bu xolatlarda inson o‘zining noto‘kisliligini, qo‘yilgan talabalarga javob bera olmasligini xis etadi natijada o‘z o‘ziga baho berish darajasi pasayadi, ijtimoiy mavqeini yo‘qotadi, o‘ziga bildirilgan

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 5. May 2024

e'tirozlarni adolatsiz deb qabul qiladi. • Mayishiy moddiy muammolar. • Alkogol yoki narkotik moddalarni istemol qilish. Z. Freyd inson xulqiga 2 asosiy instinkt : Eros – xayot isintikti undagi quvvat (libido) xayotni saqlash, qayta tiklashga yo'naltiradi va Tanatos – o'lim instikti ,undagi quvvat xayotni vayron qilish va to'xtatishga yo'naltiradi (suitsid) Tanatos asosini Freyd barcha biologik xayot farmalari uchun umumiy bo'lgan biologik mexanizm tashkil etadi deb xisoblagan har bir organizm o'zidagi asabiy qo'zg'oluvchanlikni imkon qadar pasaytirishga xarakat qiladi o'lim barcha ichki qo'zg'aluvchanlikni umuman yo'qotadi, shuning uchun barcha tirik organizmlar o'limga intiladilar. Uning nazdida, shaxs bu insondagi ikki asos — onglilik va ongostlilik asoslarining kurash maydoni. «Libido» — jinsiy intilish quvvati inson faolligining, irodasining manbaidir. Shahvoniy intilish doimo onglilik doirasiga siqib chiqariladi va bevosita namoyon bo'lmay, o'zgarib, sublimatsiyalashib (o'zga holatga o'tib) boshqa intilish va xarakterlarda yuzaga keladi. Deviant xulq- atvorni o'rganishning asosini E. Drukgeym tashkil etadi va u anomiyaga to'liqroq tarif berdi. Anomiyaga deganda, u keskin o'zgarishlar, sakrashlar, ya'ni jamiyatning me'yoriy tizimining yo'q qilinishi yoki zaiflashishi holatini tushundi. Bu talqinda anomiyaga ijtimoiy tartibsizlikdir. Deviant axloqning yosh va jinsiy farqlanishi garchi asosiy mavzularni ko'rib chiqishda inobatga olinsa-da, bizning ta'limotimiz predmeti hisoblanadi. Shuni ta'kidlash zarurki, “og'ishgan xulq” atamasini 5 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin, qat'iy ma'noda esa – 9 yoshdan keyin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me'yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda axloqi yosh me'yoridan ahamiyatli tarzda og'sa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Abu Nasr Al Farobiy Arastuga o'xshab fazilatlarini 2 turga ajratgan: 1. Fozoil nutqiya (aql idrokka asoslangan fazilatlar) 2. Fazoil xulqiya (xulqiy fazilatlar)ga ajratadi hamda ularning xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi. Deviant axloqning jismoniy shartlariga iqlimiy, geofizik, ekologik va boshqa omillarni kiritish mumkin. Masalan, shovqin, torlik, stressni potentsiyalovchi geomagnit ikkilanish kabi ko'rinishlar tajovuzkor va istalmagan axloqning nomaxsus sabablari bo'lishi mumkin. Avstriyalik rejissor Ulrix Zaydning “Jazirama issiq” hujjatli filmida havo yuqori haroratining inson psixik

holatiga ta'siri g'ayritabiiy tarzdaaniq tasvirlab berilgan. Ota-onaning o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi; - shaxsiy muammolar (fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi o'smirlarda jinsiy rivojlanish xususiyatlari – pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi); - o'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish – “Terzit kompleksi” (kattalar tomonidan noadekvat idrok qilinishi). O'smir o'zini kattalardek his etishida unga bolalar kabi munosabatda bo'lish yoqmaydi; - o'smirdagi tafakkurning tanqidiyligi – kattalar hatti-harakatiga nisbatan shubha bilan qarash, ularda o'rnatilgan axloqiy me'yorlarga nisbatan e'tiroz hislarining shakllanishga olib keladi; - o'smiringa nisbatan ma'lum bir ijtimoiy tamg'alarning bosilishi (o'qituvchilar tomonidan o'smirning o'zlashtira olmasligi, tarbiyasizligi, u bilan gaplashish befoydaligini ta'kidlash); - ijtimoiy omillar (jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi haqidagi g'oyasining o'rnatilganligi, maktablardagi o'quv sinflarning haddan ziyod to'laligi, maktabdan haddan ziyod charchash, asabiylashish).

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. The Routledge Handbook of Deviant Behavior. Ed.C.D. Bryant. Taylor&Francis Group, 2011. 632 p.
2. Змановская Е. В. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения): Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М., 2003. 288 с. 3. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения: Учеб. пособие для вузов. М., 2001.
4. Менделевич В.Д. Психология девиантного поведения. Учебное пособие. СПб.: Речь, 2005. 445 с.
5. Хагуров Т. А. Введение в современную девиантологию: Учеб. Пособие. Под ред. Г.В. Драча. Ростов н/Д, 2003. 344 с.